

**OILAVIY MUNOSABATLARNING O‘SMIRLAR IDENTLIGIGA TA’SIRINI
EMPIRIK O‘RGANISH**

**ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ
НА ИДЕНТИЧНОСТЬ ПОДРОСТКОВ**

**AN EMPIRICAL STUDY OF THE INFLUENCE OF FAMILY RELATIONS ON
ADOLESCENT IDENTITY**

Psixologiya fanlari

Toshpolatova Robiya Akmal qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: X.A.Asqarova

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Email: Robiyaramazonova@icloud.com

Tel: +998 93 509 96 76

ORCID: 0009-0004-5895-8905

Тошполатова Робия Акмал кизи

*Студентка 4 курса Узбекского университета журналистики и массовых
коммуникаций*

Научный руководитель: Х.А.Аскарова

доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,

Toshpolatova Robiya Akmal qizi

4th-year student, Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications

Scientific advisor: Kh.A. Asqarova

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,

Annotatsiya: Maqolada oilaviy munosabatlarning o‘smirlar shaxsiy identligi shakllanishiga ta’siri Toshkent viloyati Parkent tumanidagi 29-umumta’lim maktabining 9–10-sinf o‘quvchilari (n=60) ishtirokida o‘tkazilgan empirik tadqiqot asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda J. Marsiyaning “Shaxsiy identlik statuslari”, R. Moos va B. Moosning “Oilaviy muhit shkalasi” (FES) hamda A.Ya.Varga va V.V.Stolinning “Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabati” metodikalaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *shaxsiy identlik, identlik statuslari, moratoriy, diffuz identlik, oilaviy muhit, ota-ona munosabati, o‘smirlik davri, empirik tadqiqot.*

Аннотация: *В статье на основе эмпирического исследования, проведенного среди учащихся 9–10 классов школы №29 Паркентского района Ташкентской области (n=60), анализируется влияние семейных отношений на формирование личностной идентичности подростков. Используются методика статусов эго-идентичности Дж. Марсиа, «Шкала семейного окружения» (FES) Р. Мооса и Б. Мооса, а также опросник родительского отношения А.Я. Варги и В.В. Столина.*

Ключевые слова: *личностная идентичность, статусы идентичности, мораторий, диффузная идентичность, семейная среда, родительское отношение, подростковый возраст, эмпирическое исследование.*

Abstract: *Based on an empirical study conducted among 9th–10th grade students (n=60) of school No. 29 in the Parkent district of the Tashkent region, this article examines the influence of family relations on the formation of adolescents' personal identity. J. Marcia's identity status methodology, R. Moos and B. Moos's Family Environment Scale (FES), and A.Ya. Varga and V.V. Stolin's parent-child relationship questionnaire were used.*

Key words: *personal identity, identity statuses, moratorium, diffuse identity, family environment, parental attitude, adolescence, empirical study.*

Kirish.

O‘smirlik davri shaxsning “Men kimman?” degan savolga javob izlashi, o‘z qadriyatlari, kasbiy yo‘nalishi va ijtimoiy o‘rnini belgilashga intilishi bilan tavsiflanadigan murakkab bosqichdir. E. Erikson psixososial rivojlanish nazariyasida bu davrni “identlik – rol chalkashligi” bosqichi sifatida ta’riflab, uning muvaffaqiyatli o‘tishi shaxsning keyingi hayotidagi barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan.

Shaxsiy identlik shakllanishida oila muhim ijtimoiy institut sifatida alohida o‘rin tutadi. Oiladagi emotsional yaqinlik, ota-ona va farzand o‘rtasidagi hamkorlik, nazorat darajasi va konfliktlarning namoyon bo‘lish xususiyati o‘smirning o‘zligini anglashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati hamda ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli oilaviy munosabatlarning o‘smirlar identligiga ta’sirini empirik jihatdan o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi – oilaviy munosabatlarning o‘smirlarda shaxsiy identlik shakllanishiga ta’sirini empirik yo‘l bilan aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent viloyati, Parkent tumanida joylashgan 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9–10-sinf o‘quvchilari tanlab olindi. Tadqiqotga jami 60 nafar respondent (23 nafar qiz, 37

nafar o‘g‘il bola) jalb etildi. Tanlanma o‘smirlik davrining o‘rta bosqichini qamrab olgani uchun shaxsiy identlik shakllanish jarayonini o‘rganishda dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Shaxsiy identlik muammosi E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasidan boshlanadi, unga ko‘ra identlik shaxsning butun hayoti davomida shakllanib boruvchi dinamik tuzilma hisoblanadi. Kanadalik psixolog J. Marsiya 1966-yilda Erikson g‘oyalarini rivojlantirib, “identlik statuslari” konsepsiyasini ishlab chiqdi va uni ikkita o‘lchov – izlanish va majburiyat (qaror) asosida to‘rtta holatga ajratdi: identlik diffuziyasi, identlikni erta yopib qo‘yish (foreclosure), identlik moratoriysi va identlikka erishish.

Identlik diffuziyasi holatida shaxs na variantlarni faol o‘rgangan, na qaror qabul qilgan bo‘ladi. Identlikni erta yopib qo‘yish holatida shaxs mustaqil izlanishsiz, ko‘pincha ota-onalar yoki boshqa muhim insonlarning qadriyatlarini o‘zlashtirgan holda qaror qabul qiladi. Moratoriy holati faol izlanish, ammo hali aniq qarorga kelinmagan davrni, identlikka erishish holati esa izlanishdan so‘ng barqaror va uyg‘un identlik shakllanganini bildiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat o‘smirlar diffuziya va foreclosure holatidan moratoriy va erishilgan identlik holatiga tomon rivojlanadi, biroq bu jarayon ko‘pincha o‘smirlik davri oxirigacha to‘liq yakunlanmaydi.

Oilaviy muhitning shaxs rivojlanishiga ta‘sirini o‘rganishda amerikalik psixologlar R. Moos va B. Moosning 1974-yilda taklif etilgan “Oilaviy muhit shkalasi” (Family Environment Scale, FES) keng qo‘llaniladi. Ushbu metodika oiladagi emotsional yaqinlik, ochiq ifodalanish, konflikt darajasi, mustaqillik va nazorat kabi ko‘rsatkichlarni baholash imkonini beradi. Ota-ona va farzand munosabatlarining tarbiyaviy jihatlarini o‘rganishda esa rus psixologlari A.Ya.Varga va V.V.Stolin tomonidan 1980-yillarda ishlab chiqilgan “Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabati” test-so‘rovnomasi qo‘llaniladi. Bu metodika qabul qilish–rad etish, kooperatsiya, simbioz, avtoritar nazorat va bolaning omadsizliklariga munosabat kabi besh yo‘nalish bo‘yicha ota-ona pozitsiyasini aniqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot obyekti – 29-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 9–10-sinflarida tahsil olayotgan 60 nafar o‘smir (23 qiz, 37 o‘g‘il bola). Tadqiqot predmeti – oilaviy munosabatlarning o‘smirlar shaxsiy identligi shakllanishiga ta‘siri. Tadqiqotda uchta psixodagnostik metodikadan foydalanildi: 1) J. Marsiyaning shaxsiy identlik statuslarini aniqlash metodikasi (14–22 yosh oralig‘idagi respondentlar uchun mo‘ljallangan, o‘smirning o‘z “Men”ini anglash darajasi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini baholaydi); 2) R. Moos va B. Moosning “Oilaviy muhit shkalasi” (FES, 12 yoshdan yuqori respondentlar uchun, har bir ko‘rsatkich 5 ta savoldan iborat, maksimal ball 25); 3) A.Ya.Varga va V.V.Stolinning “Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabati” so‘rovnomasi, bu metodika

29-maktab o'quvchilarining ota-onalari (70 nafar respondent) orasida onlayn tarzda o'tkazildi.

Olingan ma'lumotlar tavsifiy statistika usullari – chastota va foiz taqsimoti asosida qayta ishlandi hamda natijalar jins kesimida qiyosiy tahlil qilindi.

Muhokama.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, umumiy tanlovda eng yuqori ko'rsatkich moratoriy (31,7%) va diffuz identlik (30,0%) holatlariga to'g'ri keladi. Bu holat o'smirlik davrining psixologik xususiyati bilan izohlanadi, chunki aynan shu davrda shaxs hayotiy qadriyatlari, kasbiy yo'nalishi va ijtimoiy rolini faol izlash jarayonida bo'ladi.

Jins kesimida tahlil qilinganda, qizlar guruhida moratoriy holati (39,1%) ustunlik qildi, bu ularning shaxsiy qaror qabul qilish jarayonida faol izlanishda ekanligini ko'rsatadi. O'g'il bolalar guruhida esa diffuz identlik (32,4%) ustun bo'lib, bu ularning bir qismida hali barqaror maqsad va qadriyatlar tizimi to'liq shakllanmaganini bildiradi. Erishilgan identlik ko'rsatkichi qizlarda 21,7%, o'g'il bolalarda 24,3% ni tashkil etdi, foreclosure holati esa mos ravishda 13,1% va 16,3% ni tashkil etdi. Bu farqlar jinslar kesimida identlik shakllanish yo'lining o'ziga xosligini ko'rsatadi: qizlar ko'proq faol izlanish (moratoriy) bosqichida, o'g'il bolalar esa nisbatan ko'proq noaniqlik (diffuziya) holatida ekanligi kuzatildi.

Oilaviy muhit shkalasi (FES) natijalariga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkichlar emotsional yaqinlik (84%) va mustaqillik (80%) bo'yicha qayd etildi. Bu respondentlarning aksariyat oilalarida iliq, qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar hamda o'smirlarga ma'lum darajada mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Ifodalanish (76%) va nazorat (72%) ko'rsatkichlari o'rtacha yuqori darajada bo'lib, oilada ochiq muloqot va me'yoriy nazoratning mavjudligini bildiradi. Eng past ko'rsatkich konflikt (56%) bo'yicha qayd etilib, bu oilalarda nizoli vaziyatlar mavjud, biroq ular keskin darajada emasligini anglatadi.

Ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati natijalariga ko'ra, respondentlarning 30% ida qabul qilish (ijobiy munosabat) ko'rsatkichi yuqori bo'lib, bu ko'rsatkichlar orasida yetakchi o'rinni egalladi. Kooperatsiya (hamkorlik) 22% ni tashkil etib, ota-onalarning farzandlari bilan hamkorlik qilishga moyilligini ko'rsatdi. Simbioz (14%) va nazorat (13%) o'rtacha darajada, rad etish (12%) va bolaning omadsizliklariga salbiy munosabat (9%) esa nisbatan past darajada qayd etildi. Bu natijalar oilalarda umuman olganda ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi munosabat ustunlik qilishini, biroq ayrim oilalarda ortiqcha himoya (simbioz) yoki qat'iy nazorat elementlari ham mavjudligini ko'rsatadi.

Olingan natijalarni birgalikda tahlil qilganda, emotsional yaqinlik va mustaqillik darajasi yuqori bo'lgan oilaviy muhit o'smirlarda faol izlanish (moratoriy) va identlikka erishish holatlariga zamin yaratishi, aksincha ortiqcha nazorat yoki simbiotik bog'liqlik esa identlikni erta yopib qo'yish (foreclosure) yoki diffuziya holatlarining kuchayishiga sabab bo'lishi

mumkinligi kuzatildi. Bu xulosa oilaviy munosabatlar bilan shaxsiy identlik shakllanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari quyidagi jadvallarda umumlashtirilgan.

1-jadval. O‘smirlarning shaxsiy identlik statuslari taqsimoti (n=60)

Identlik statusi	Qizlar (n=23)	O‘g‘il bolalar (n=37)	Jami
Diffuziya	6 (26,1%)	12 (32,4%)	18 (30,0%)
Moratoriy	9 (39,1%)	10 (27,0%)	19 (31,7%)
Erishilgan identlik	5 (21,7%)	9 (24,3%)	14 (23,3%)
Foreclosure	3 (13,1%)	6 (16,3%)	9 (15,0%)

2-jadval. Oilaviy muhit shkalasi (FES) bo‘yicha ko‘rsatkichlar (n=60)

Ko‘rsatkich	Ball (max. 25)	Foiz (%)
Emotsional yaqinlik	21	84%
Ifodalanish	19	76%
Konflikt	14	56%
Mustaqillik	20	80%
Nazorat	18	72%

3-jadval. Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabati ko‘rsatkichlari (n=70)

Ko‘rsatkich	Foiz (%)
Qabul qilish (ijobiy munosabat)	30%
Kooperatsiya (hamkorlik)	22%
Simbioz	14%

Nazorat	13%
Rad etish (salbiy munosabat)	12%
Omadsizlikka salbiy munosabat	9%

Jadvallardan ko‘rinib turibdiki, identlik statuslari orasida moratoriy va diffuziya ustunlik qiladi, oilaviy muhitda esa emotsional yaqinlik va mustaqillik yetakchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ota-onalarning bolalarga munosabatida esa qabul qilish va hamkorlik ko‘rsatkichlari boshqa ko‘rsatkichlardan ustun bo‘lib chiqdi.

Xulosa.

O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilaviy munosabatlar o‘smirlarda shaxsiy identlik shakllanishida muhim psixologik omil ekanligi tasdiqlandi. O‘smirlar orasida moratoriy va diffuz identlik statuslarining ustunligi bu davrda shaxsning o‘zligini anglash jarayoni hali davom etayotganini ko‘rsatadi, bu esa o‘smirlik davrining psixologik jihatdan tabiiy xususiyati hisoblanadi.

Oilalarda emotsional yaqinlik va mustaqillik darajasining yuqoriligi, shuningdek ota-onalarda qabul qilish va hamkorlikka asoslangan munosabatning ustunligi o‘smirlarning ijobiy identlik rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida belgilandi. Shu bilan birga, ayrim oilalarda kuzatilgan simbiotik bog‘liqlik va qat’iy nazorat elementlari o‘smirning mustaqilligiga cheklov yaratishi va identlikni erta yopib qo‘yish holatiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi.

Olingan natijalar asosida quyidagi tavsiyalar taklif etiladi: birinchidan, ota-onalar uchun farzand mustaqilligini qo‘llab-quvvatlovchi tarbiya uslublari bo‘yicha psixologik-pedagogik maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish; ikkinchidan, maktab psixologlari tomonidan o‘smirlarning identlik statusini muntazam diagnostika qilish va moratoriy holatidagi o‘quvchilarga qo‘shimcha psixologik qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish; uchinchidan, oilalarda konflikt darajasini kamaytirish va o‘zaro ochiq muloqotni rivojlantirishga qaratilgan trening dasturlarini joriy etish.

Kelgusi tadqiqotlarda namunani kengaytirish, boshqa hududlar bilan qiyoslash, shuningdek oilaviy muhit ko‘rsatkichlari bilan identlik statuslari o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni korrelyatsion tahlil asosida chuqurroq o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton & Company, 1968.
2. Marcia J.E. Development and validation of ego-identity status // Journal of Personality and Social Psychology. – 1966. – Vol. 3, № 5. – P. 551–558.
3. Moos R.H., Moos B.S. Family Environment Scale Manual. – Palo Alto: Consulting Psychologists Press, 1974.
4. Столин В.В., Варга А.Я. Опросник родительского отношения // Практикум по психодиагностике: Психодиагностические материалы. – М.: Изд-во МГУ, 1988. – С. 107–113.
5. Hakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 155 b.